

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi ona tili va adabiyot fanidan o‘rta maxsus va professional ta‘lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonini va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta‘minlash, talabgorlarning ona tili va adabiyot fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta‘lim fanlarini kasbiy ta‘lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

Ona tili

1. Talaffuz va imlo
2. Leksikologiya va frazeologiya
3. So‘z tarkibi
4. Grammatika
5. Tinish belgilari
6. Uslubiyat
7. Nutq madaniyati

Adabiyot

8. Milliy adabiy meros
9. Jahon adabiyoti
10. Adabiyot nazariyasi, mumtoz lirika

11. Matnni tushunish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
ONA TILI				
Talaffuz va imlo	Nutq tovushlari tasnifi. Talaffuz me'yorlari. Imlo va uning tamoyillari. Fonetik hodisalar.	Nutq tovushlarini ovoz va shovqinning ishtirokiga, shuningdek, til va lablarning harakatiga ko'ra farqlay oladi. Imlo qoidalarini amalda to'g'ri qo'llaydi. Fonetik hodisalarni aniqlab, ularni turlariga ko'ra ajrata oladi hamda talaffuz va imlo me'yorlariga rioya qiladi.	12 %	5
Leksikologiya va frazeologiya	So'zning atash ma'nosi. Ko'p ma'noli so'zlar. Ma'no ko'chish usullari. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Iboralar.	Leksikologiyaga oid bilimlarga tayanib, so'zlarning atash ma'nolarini izohlay oladi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'no ko'chish usullarini aniqlaydi va ularni nutqda to'g'ri qo'llaydi. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini aniqlaydi, nutq shakllarida ulardan unumli foydalana oladi. Iboralar izohini tushunadi va nutq shakllarida ulardan o'rinli foydalanadi.	13 %	5
So'z tarkibi	Asos va qo'shimchalar. Qo'shimchalar tasnifi.	So'z tarkibini tahlil qilib, so'zlarni ma'noli qismlarga ajrata oladi. So'z yasovchi, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarning vazifasini aniqlaydi hamda ularni nutqda to'g'ri qo'llaydi.	5 %	2

Grammatika	I. Morfologiya Mustaqil soʻz turkumlari. Yordamchi soʻz turkumlari. Alohida olingan soʻzlar. II. Sintaksis Teng va tobe bogʻlanish. Gap. Gap boʻlaklari. Gap boʻlaklari bilan aloqaga kirishmaydigan boʻlaklar. Gapning tuzilishiga koʻra turlari – sodda va qoʻshma gaplar.	Mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari hamda alohida olingan soʻzlar guruhiga mansub birliklarni farqlaydi. Ularning vazifalarini anglab, nutq shakllarida toʻgʻri qoʻllay oladi. Grammatik bogʻlanish (teng va tobe)larni aniqlaydi. Gap boʻlaklari, gap boʻlaklari bilan aloqaga kirishmaydigan boʻlaklarni oʻxshash birliklardan farqlaydi. Gapning tuzilishiga koʻra turlarini, gap qismlarini bogʻlovchi vositalarni aniqlab, nutq koʻrinishlarida samarali qoʻllaydi. Sintaktik tuzilmani tahlil qilib, gapning grammatik qurilishini anglaydi, anglaganlarini ogʻzaki va yozma nutqida qoʻllaydi.	25 %	10
Tinish belgilari	Tinish belgilari: nuqta, soʻroq, undov, vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, qoʻshtirnoq, koʻp nuqta.	Tinish belgilarining turlarini, qoʻllanish qoidalarini biladi. Gapda tinish belgilarining maʼno va ohangga taʼsirini anglay oladi hamda yozma nutqda tinish belgilaridan toʻgʻri va oʻrinli foydalanadi.	2 %	1
Uslubiyat	Nutq uslublari va uslubiy xatolar.	Nutq uslublarini farqlay oladi, har bir uslubning oʻziga xos xususiyatlarini biladi va nutq jarayonida ularni maqsadga muvofiq qoʻllaydi. Uslubiy xatolarni aniqlaydi, ularni tuzata oladi hamda ogʻzaki va yozma nutqda uslubiy aniqlik va ravonlikni taʼminlaydi.	5 %	2
ADABIYOT				
Milliy adabiy meros	Xalq ogʻzaki ijodi namunalari. Qadimgi turkiy adabiyot. Oʻzbek mumtoz adabiyoti. XX asr adabiyoti. Mustaqillik davri	Xalq ogʻzaki ijodi, mushtarak va milliy adabiy meros namunalarini tahlil qila oladi. Oʻzbek mumtoz, jadid va zamonaviy adabiyot namoyandalarining asarlarini mazmunan hamda badiiy jihatdan oʻrganib, tahlil qiladi, muallif uslubini aniqlaydi. Asardagi personajlar,	15 %	6

	adabiyoti.	voqealar va asarning g'oyaviy mazmunini tahlil qilib, badiiy asarni anglash va baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.		
Jahon adabiyoti	Qadimgi dunyo adabiyoti Jahon adabiyoti namunalari.	Jahon adabiyoti, shuningdek, qadimgi dunyo adabiyoti namunalari tahlil qiladi, turli davr va yo'nalishdagi asarlarning mazmuni hamda badiiy xususiyatlarini anglay oladi. Mualliflarning g'oyaviy yo'nalishi, uslubi va obrazlar tizimini tahlil qiladi. Jahon adabiyotini milliy adabiyot bilan bog'laydi, umumiy va farqli jihatlarni aniqlay oladi hamda badiiy asardan estetik zavq ola biladi.	10 %	4
Adabiyot nazariyasi, mumtoz lirika tahlili	Adabiy janrlar. Badiiy san'atlar.	Adabiyot nazariyasi asoslarini biladi, adabiy janrlar, uslubiy vositalar va badiiy san'atlarni aniqlaydi.	5 %	2
Matnni tushunish	Matn tahlili.	Ilmiy va badiiy matnlarni o'qib tushunadi, matnning g'oyasini aniqlaydi, fakt va fikrni farqlay oladi. Asarni mantiqiy tahlil qiladi, matn asosida xulosa chiqaradi.	8 %	3
Jami	40			

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

- 5-sinf. Ona tili darsligi (I, II qism) darslik / K.M. Mavlonova, N.S.Hakimova, M.R.Siddiqov, S.H.Qo'ldosheva; muharrir O.T.Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
- 6-sinf. Ona tili darsligi I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
- 7-sinf. Ona tili darsligi. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
- 8-sinf. Ona tili darsligi. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova,

- R.Sayfullayeva, B.Mengliyev Toshkent – 2019.
5. 9-sinf. Ona tili darsligi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov. Toshkent – 2019.
- 2025.
6. 10-sinf. Ona tili darsligi. B. Mengliyev, Sh. Abdurahim, K. Mavlonova, M. Siddiqov, S. Atoyeva. Toshkent – 2022.
7. 11-sinf. Ona tili darsligi. (1-qism) N.M. Mahmudov, Y.R. Odilov, G. Sh. Ziyodullayeva. Toshkent – 2018.
8. 11-sinf. Ona tili darsligi. (2-qism) B. Mengliyev, Sh. Toshmirzayeva, S. Atoyeva, S. Majidova. Toshkent – 2020.

Adabiyot

1. Adabiyot 5-sinf (I, II qism) darslik. Q.B. Yoʻldoshev, O.O. Olimjonov, N.N. Yusufjonova, S.I. Qambarova, D.B. Toʻxliyeva; muharrir X.A. Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. 6-sinf adabiyot darsligi. Z. Mirzayeva, K. Jalilov Toshkent – 2022.
3. 7-sinf adabiyot darsligi. Z. Mirzayeva, K. Jalilov Toshkent – 2022.
4. 8-sinf adabiyot darsligi. S. Olim, S. Ahmedov, R. Qoʻchqorov Toshkent – 2019.
5. 9-sinf adabiyot darsligi. Q. Yoʻldoshev, V. Qodirov, J. Yoʻldoshbekov. Toshkent – 2019.
6. 10-sinf adabiyot darsligi. 1-qism. Z. Mirzayeva, K. Jalilov Toshkent–2024.
7. 10-sinf adabiyot darsligi. 2-qism. Z. Mirzayeva, K. Jalilov Toshkent–2024.
8. 11-sinf adabiyot darsligi. 1-qism. B. Toʻxliyev, B. Karimov, K. Usmonova Toshkent–2018.
9. 11-sinf adabiyot darsligi. 2-qism. B. Toʻxliyev, B. Karimov, K. Usmonova. Toshkent–2018.

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. Dilnavoz Yusupova “Gʻazallar sharhi” – Istiqlol davri oʻzbek navoiyshunosligi 27-jild. Toshkent – 2022.
2. “Oʻzbek tilining katta imlo lugʻati” – E.A. Begmatov, A.R. Madvaliyev, Y.R. Odilov. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023.
3. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” – A. Madvaliyev, N. Mahkamov. D. Xudoyberganova, O. Odilov. “Oʻzbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021.
4. <https://www.oecd.org/pisa/test/pisa-2022-mathematics-test-questions.htm>

